


"Muhammad Yoqubbek" kitobi Turkiyada turk tilida nashr etildi

Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimlari professor Ablat Xo'jayev hamda t.f.d Sherali Qo'ldoshevlar muallifligidagi "Muhammad Yoqubbek" kitobi Turkiyada turk tilida nashr etildi.



Ushbu kitob Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan, davlat arbobi, harbiy sarkarda Muhammad Yoqubbek (1820-1877) hayoti va faoliyati haqidadir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Ilyos Ohundning "Muhammad Yoqubbekning so'nggi kunlari" (O'zR FA SHI, №417), Mullo Muhammad Ibrohim Fanokatiyning Sharqiy Turkiston tarixi (O'zR FA SHI, №12663) va boshqa birlamchi asarlardagi ma'lumotlar asosida Muhammad Yoqubbekning Yettishahar davlati tarixini chuqurroq o'rganishga yordam beradi.